

“Ular she’ri uchdi ko’p yiroq!”

2021- yil 17-may kuni Adiblar hiyobonida O’zbekiston qahramoni, O’zbekiston xalq shoiri Abdullo Oripov haykali qoshida “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti dekani R.Xakimov boshchiligida fakultet professor-o’qituvchilari hamda faol talaba yoshlari hamrohligida shoir ijodi, she’riyati va hayot yo’lini yod etish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi. Tadbirda O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Vafo Fayzulloh, faylasuf Qiyomiddin Nazarovlar ishtirok etishdi.



Tadbirni fakultet dekani R.Xakimov kirish so’zi ochib berdi, taklif etilgan mehmonlar shoir hayoti va ijodi va uning she’riyatini ahamiyati, tutgan o’rni, shuningdek, yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik, insoniylik, yurtga sadoqat ruxida tarbiyalashda katta o’rin tutishi to’g’risida yig’ilganlar bilan samimiyl o’rtoqlashdilar. Tadbir davomida shoir Abdulla Oripov ijodiga mansub she’rlar va kuy qo’shiqlar kuylandi.



**“SXTE va B” fakulteti dekani o’rinbosari J.Turdiyev ma’lumoti
TIQXMMI matbuot xizmati**